

нестандартных задач. Кроме того, значительную роль играет использование интерактивных онлайн-инструментов, способствующих обмену идеями между студентами. Виртуальные рабочие пространства, платформы для совместного редактирования документов и интерактивные доски помогают объединить усилия учащихся, давая возможность мгновенно вносить правки и предлагать альтернативные решения. Это формирует культуру постоянного диалога и сотрудничества, позволяя каждому участнику почувствовать свою значимость в общем процессе. Такие методики требуют гибкого подхода, регулярного мониторинга и корректировки этапов работы, что обеспечивает постоянное совершенствование творческого процесса. В итоге, реализация групповых проектов становится мощным средством формирования у студентов не только профессиональных, но и жизненных навыков, способствующих успешной адаптации и развитию в условиях постоянно меняющегося мира.

Использование групповых проектов в образовательном процессе – это не просто метод активного обучения, но и эффективный способ формирования творческих навыков у студентов. Эти проекты дают возможность развивать самостоятельность, креативное мышление и эмоциональную устойчивость, позволяя каждому участнику внести личный вклад в общий результат. Совместная работа помогает подготовить студентов к реальным вызовам профессиональной деятельности, где умение работать в команде и находить инновационные решения становится залогом успеха. Таким образом, групповые проекты играют значимую роль в воспитании будущих специалистов, способных мыслить креативно и действовать решительно в условиях быстроменяющегося мира. В дополнение к вышеизложенному, групповые проекты способствуют выработке лидерских качеств и навыков самоорганизации, что является неотъемлемой частью профессионального роста современной личности. Погружаясь в совместные задачи, студенты учатся распределять обязанности, планировать рабочий процесс и находить общий язык в условиях динамичных изменений и высокой неопределенности. Это способствует не только глубокому освоению учебного материала, но и вырабатывает способность принимать решения в коллективе, преодолевать возникающие разногласия и стремиться к компромиссным решениям. Работа в команде стимулирует развитие критического мышления, позволяет участникам экспериментировать с новыми идеями и методами, а также формирует мотивацию для постоянного самосовершенствования. На пути к достижению общих целей студенты обретают уверенность в собственных силах, что отражается на их профессиональном и личностном развитии. Таким образом, групповые проекты создают благоприятную среду для обмена знаниями, развития эмоциональной зрелости и формирования навыков, востребованных в современном мире, где сотрудничество и инновации играют ключевую роль в успехе любой команды.

Список использованной литературы:

1. Андреев, В.И. Педагогика высшей школы. Инновационно-прогностический курс [Текст]: учебное пособие / В.И. Андреев. – Казань: Центр инновационных технологий, 2006. – С. 206-268, 268-311.
2. Зеер, Э.Ф. Психология профессионального развития [Текст]: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / Э.Ф. Зеер. – М.: Издательский центр «Академия», 2006. – 240 с.
3. Качуровский В.И. К 75 Педагогика высшей школы: учеб, пособие / В.И. Качуровский; Перм. гос. над. исслед. ун-т. – Пермь, 2015. – 150 с.
4. Развитие критического мышления на уроке: пособие для учителей общеобразоват. учреждений / С. И. ЗаирБек, И. В. Муштавинская. – 2-е изд., дораб. – М. : Просвещение, 2011. – 223 с. : ил. – (Работаем по новым стандартам). – ISBN 978-5-09-019218-7.
5. Сборник по развитию критического мышления: из опыта работы учителей Назарбаев интеллектуальных школ. Опря О.В. – Астана: АОО, Центр педагогического мастерства , 2015. – 90с.

GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TIL VA ADABIYOT TA'LIMI BILAN INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI

Suyunov Samar Samandarovich,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti ilmiy izlanuvchisi
samarsuyunov89@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ekologik kompetentlikning ta'rifi, uning shakllanishiga yordam beradigan asosiy tamoyillar va innovatsion pedagogik yondashuvlar, shu jumladan interaktiv texnologiyalar va kooperativ o'qitish metodlari muhokama qilinadi. Shuningdek, til va adabiyot ta'limining ekologik ta'limga qo'shgan hissasi, ekologik atamalarni o'rganish va badiiy adabiyotlar orqali ekologik tafakkur va mas'uliyatni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Maqola, geografiya va adabiyot fanlari o'rtasidagi integratsiyaning ekologik kompetentlikni shakllantirishda samarali vosita sifatida muhimligini ko'rsatadi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar va integratsiyalashgan metodlar o'quvchilarda ekologik masalalar bo'yicha bilim va tafakkur darajasini oshiradi. Ularning tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatini rivojlantiradi. Maqola pedagogika sohasida ekologik ta'limni takomillashtirish uchun foydali tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar. Zamonaviy ilm-fan, ta'lim, til va adabiyot, geografik ta'lim, innovatsion o'qitish, badiiy adabiyotlar, simulyatsiya usuli, BMT, PISA, TIESS zamonaviy texnologiyalar, atrof-muhit, milliy an'analar, multimedia vositalari, innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiya, ekologik ta'lim, kooperativ, muammolarni o'rganish.

COĞRAFYA ÖĞRETMENLERİNİN EKOLOJİK YETERLİLİKLERİNİN GELİŞTİRİLMESİNDE DİL VE EDEBİYAT EĞİTİMİ İLE ENTEGRASYONUN ÖNEMİ

Suyunov Samar Samandarovich,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü araştırmacısı

Özet. Makale, çevresel yeterliliğin tanımını, oluşumuna yardımcı olan temel ilkeleri ve etkileşimli teknolojiler ve işbirlikçi öğrenme yöntemlerini içeren yenilikçi pedagojik yaklaşımları tartışmaktadır. Ayrıca dil ve edebiyat eğitiminin çevre eğitimine katkısı, ekolojik terimlerin ve kurguların çalışılması yoluyla ekolojik düşünce ve sorumluluğu geliştirme olanakları vurgulanmaktadır.

Makale, çevresel yeterliliğin oluşmasında etkili bir araç olarak coğrafya ve edebiyat bilimleri arasındaki entegrasyonun önemini göstermektedir. Yenilikçi pedagojik yaklaşımlar ve entegre yöntemler öğrencilerin çevre sorunları hakkındaki bilgilerini ve düşüncelerini artırır. Doğaya karşı bilinçli ve sorumlu tutumlarını geliştirir. Makale ayrıca pedagoji alanında çevre eğitiminin geliştirilmesine yönelik faydalı öneriler de içermektedir.

Anahtar kelimeler. Modern bilim, eğitim, dil ve edebiyat, coğrafya eğitimi, yenilikçi öğretim, kurgu, simülasyon yöntemi, BM, PISA, TIESS modern teknolojiler, çevre, ulusal gelenekler, multimedya araçları, yenilikçi yaklaşımlar, yeni teknoloji, çevre eğitimi, işbirlikçi, problemlerin incelenmesi.

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ С ЯЗЫКОВЫМ И ЛИТЕРАТУРНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Суюнов Самар Самандарович,

научного сотрудника Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются определение экологической компетентности, основные принципы, способствующие ее формированию, а также инновационные педагогические подходы, в том числе интерактивные технологии и методы кооперативного обучения. Также подчеркивается вклад языкового и литературного образования в экологическое образование, изучение экологических терминов и возможности развития экологического мышления и ответственности посредством художественной литературы.

В статье показана важность интеграции географии и литературы как эффективного инструмента формирования экологической компетентности. Инновационные педагогические подходы и комплексные методы расширяют знания и мышление учащихся по вопросам охраны окружающей среды. Это развивает у них осознанное и ответственное отношение к природе. В статье также даны полезные рекомендации по совершенствованию экологического образования в области педагогики.

Ключевые слова. Современная наука, образование, язык и литература, географическое образование, инновационное обучение, художественная литература, метод симуляции, ООН, PISA, TIESS, современные технологии, окружающая среда, национальные традиции, мультимедийные средства, инновационные подходы, новые технологии, экологическое образование, кооперативное, решение проблем.

THE IMPORTANCE OF INTEGRATION WITH LANGUAGE AND LITERATURE EDUCATION IN DEVELOPING ECOLOGICAL COMPETENCE OF GEOGRAPHY TEACHERS

Suyunov Samar Samandarovich,
research fellow of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. The article analyzes the importance of integrating language and literature education in developing the environmental competencies of future geography teachers through innovative pedagogical approaches. The article discusses the definition of environmental competence, the main principles that contribute to its formation, and innovative pedagogical approaches, including interactive technologies and cooperative learning methods. It also highlights the contribution of language and literature education to environmental education, the possibilities of studying environmental terms and developing ecological thinking and responsibility through fiction. The article shows the importance of integration between geography and literature as an effective tool in the formation of environmental competence.

Innovative pedagogical approaches and integrated methods increase the level of knowledge and thinking of students on environmental issues. They develop their conscious and responsible attitude towards nature. The article also contains useful recommendations for improving environmental education in the field of pedagogy.

Keywords. Modern science, education, language and literature, geographical education, innovative teaching, fiction, simulation method, UN, PISA, TIESS, modern technologies, environment, national traditions, multimedia tools, innovative approaches, new technology, environmental education, cooperative, problem-solving.

Kirish. XXI asr ekologik inqiroz va atrof-muhit muammolari bilan tobora dolzarbroq bo'lib bormoqda. Global isish, bioxilma-xillikning kamayishi, suv va havo ifloslanishi kabi muammolar insoniyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ta'lim tizimida ekologik savodxonlikni oshirish hamda ekologik kompetentlikni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bu borada xalqaro miqyosda insoniyatning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi tasavvurlarini yoshlar ongida

shakllantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Geografiya fani ekologik muammolarni o'quvchilarga tushuntirish va ularda ekologik tafakkurni shakllantirish uchun asosiy vositalardan biridir. Biroq bu jarayonda faqat geografik bilimlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Til va adabiyot fanlari bilan integratsiya qilish orqali ekologik ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ekologik muammolarni chuqur anglashiga yordam berish mumkin.

Ma'lumki, dunyo miqyosida ekologik inqirozlarning oldini olish va tabiiy musaffolikni asrash asosida yosh avlodning ekologik bilimi, ongi, madaniyatini shakllantirishda BMT, Yevropa komissiyasining "Barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta'lim bo'yicha strategiya"si uzluksiz ta'lim tizimiga muntazam tatbiq etilmoqda. Ekologik uzluksiz ta'limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini "Edu Market interfaol-virtual uzluksiz ta'lim" texnologiyasi hamda xalqaro amaliyotga tatbiq etilayotgan PISA, TIESS kabi dasturlariga bosqichma-bosqich integratsiyalash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Geografik ta'lim insoniyat uchun umumiy uy sifatida o'z mamlakati va sayyoramizni o'rganish uchun ishonchli asosdir [1, 224 b.]. Aynan shu ta'lim zamonaviy dunyo va insoniyatning xilma-xilligi va birligi bilan birligini ongli ravishda tushunishni ta'minlaydi. O'quvchilar o'zlarini o'rab turgan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni va insonning kosmosda mavjud bo'lishining ma'nosini to'g'ri tushunishlari uchun juda katta geografik bilimlarni to'plashi zarur.

Asosiy qism. Bugungi kunda insoniyat ekologik inqiroz bilan yuzlashmoqda, shuning uchun ekologik kompetentlikni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Bu jarayonda ekologik ta'limning samarali bo'lishi uchun geografiya fanining, til va adabiyot ta'limining integratsiyasi kerak. Geografiya fanidan o'rganiladigan ekologik bilimlar va til va adabiyot fanidan olingan badiiy tasvirlar orqali ekologik tafakkur va mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishga yordam beriladi.

Ekologik kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarni ko'rsatish mumkin:

- **Ekologik ong** – insonning tabiiy muhitga bo'lgan qarashini shakllantirish, atrof-muhitni saqlashga bo'lgan ehtiyojni anglash.

- **Mas'uliyatli munosabat** – o'quvchilarda tabiatga bo'lgan mas'uliyatni shakllantirish, o'zgaruvchan ekologik vaziyatlarga ijobiy munosabatda bo'lish.

- **Kooperativ yondashuv** – ekologik muammolarni jamoaviy ravishda hal qilish, shuningdek, bu orqali o'quvchilarda hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish.

- **Amaliy faoliyat** – ekologik bilimlarni amaliyotda qo'llash, tabiatni himoya qilishga qaratilgan harakatlarni ko'rsatish.

Geografiya fanining ekologik bilimlarni ona tili va adabiyot ta'limining integratsiyasi ekologik kompetentlikni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Adabiyot orqali ekologik masalalarni nafaqat ilmiy, balki badiiy nuqtai nazardan tushunish o'quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantiradi. Adabiyot, ayniqsa, ekologik masalalarni badiiy tilda tasvirlash orqali o'quvchilarda hissiy munosabatni rivojlantiradi, bu esa ularda tabiatga nisbatan mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi [7, 245 b.].

Adabiyotda ekologik muammolarni ko'rsatish, badiiy tasvirlar yordamida o'quvchilarda ekologik tafakkur va mas'uliyatni shakllantirish mumkin. Masalan, mashhur ekologik romanlar va hikoyalar orqali o'quvchilarga tabiat va atrof-muhitni asrashning zarurligi haqida tushuncha berilishi mumkin.

Til va adabiyot ta'limi integratsiyasining ekologik kompetentlikka ta'siri

Ta'lim sohasi	Ta'rif	Ekologik kompetentlikka ta'siri
Badiiy adabiyotlar	Ekologik mavzularni o'z ichiga olgan she'rlar, hikoyalar, romanlar.	O'quvchilarda ekologik masalalar haqida ijodiy fikrlash va mas'uliyatni oshirish.
Ekologik matnlarni tahlil qilish	O'quvchilarga ekologik mavzulardagi badiiy matnlarni o'qish va tahlil qilish.	Ekologik atamalarni tushunish va ulardan ishlashni o'rgatish.

Sohaviy lugʻatni oʻrgatish	Ekologik atamalar va ularning maʼnolarini oʻrganish.	Oʻquvchilarda ekologik atamalarni oʻzlashtirish va ulardan samarali foydalanish.
-----------------------------------	--	--

Ekologik kompetentlikni rivojlantirishda integratsiyalashgan pedagogik yondashuvlar

Geografiya va adabiyot taʼlimining integratsiyasi ekologik kompetentlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunday integratsiya yordamida oʻquvchilarda ekologik muammolarni tahlil qilish, ular haqida toʻgʻri qarorlar qabul qilish va ekologik masalalarga nisbatan masʼuliyatli munosabatni shakllantirish mumkin.

Interdisipliner loyihalar: Geografiya va adabiyot oʻqituvchilari birgalikda ekologik masalalarni hal qilish uchun loyihalar yaratishlari mumkin. Bu oʻquvchilarga ekologik muammolarni ilmiy va badiiy nuqtai nazardan koʻrib chiqishga yordam beradi.

Ekologik hikoyalar yaratish: Oʻquvchilarni ekologik mavzularda badiiy asarlar yaratishga jalb etish, ularni ekologik tafakkur va ijodiy fikrlashga undaydi.

Debatlar: Ekologik mavzularda til va adabiyot oʻqituvchilari bilan birgalikda debatlar oʻtkazish, oʻquvchilarni ekologik masalalar boʻyicha mustaqil fikrlashga va oʻz qarashlarini asoslashga undaydi. Ekologik muammolarni oʻquvchilarga tushuntirish uchun badiiy adabiyot, publitsistik maqolalar, ilmiy-ommabop matnlar va lingvistik resurslardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Geografiya darslarida til va adabiyot fanlari bilan integratsiya qilish quyidagi afzalliklarga ega:

Ekologik ongni rivojlantirish badiiy adabiyot orqali ekologik muammolarni hissiy tushunishga yordam beradi.

Ekologik savodxonlikni oshirish lingvistik tahlil orqali ekologik terminlarni oʻrganish imkonini beradi.

Muloqot koʻnikmalarini rivojlantirish – oʻquvchilar ekologik masalalar boʻyicha munozara yuritish va muammolarni tushuntirish qobiliyatiga ega boʻladi.

Oʻtkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari – suv va ekologiya muammolarining aks etishi [9, 230 b.]. Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romani – insoniyat va tabiat oʻrtasidagi bogʻliqlik haqida fikrlashga undaydi.

Ekologik maqolalar tahlili – Oʻzbekistonning ekologik muammolari boʻyicha ilmiy maqolalar tahlili va muhokamasi. Ekologik taʼlim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy metodlar qoʻllanilishi kerak. Quyidagi innovatsion yondashuvlar geografiya oʻqituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Xulosa. Geografiya oʻqituvchilarining ekologik kompetentligini rivojlantirish, bugungi kunda taʼlim jarayonining eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ekologik kompetentlik, oʻquvchilarda tabiat va atrof-muhitni saqlashga boʻlgan ongli munosabatni shakllantirishni, ekologik masalalarni ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tushunishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ekologik kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar va geografiya fani bilan til va adabiyot taʼlimining integratsiyasi asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda. Geografiya fani, oʻzining tabiat, ekologiya, resurslar va geografik jarayonlarni oʻrgatish orqali oʻquvchilarga ekologik bilimlarni taqdim etadi. Biroq, faqat geografik bilimlar bilan cheklanib qolish, ekologik kompetentlikni toʻliq shakllantirish uchun yetarli emas. Til va adabiyot taʼlimi, ekologik masalalar bilan bogʻliq badiiy asarlar va adabiyotlarni oʻrganish orqali oʻquvchilarda ekologik tafakkur va his-tuygʻu, masʼuliyatli munosabatni rivojlantirishga katta hissa qoʻshadi. Bundan tashqari, geografiya fani bilan til va adabiyot taʼlimining integratsiyasi oʻquvchilarda ekologik masalalarni badiiy nuqtai nazardan tushunish va tahlil qilish imkonini beradi. Badiiy adabiyotlar orqali ekologik masalalarni tasvirlash, oʻquvchilarda tabiatga boʻlgan mehr-oqibatni va ekologik tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, ekologik mavzularda yozilgan hikoya va romanlar oʻquvchilarni tabiatga qarshi boʻlgan salbiy insoniyat taʼsiri, uning oqibatlari va uni qanday himoya qilish mumkinligi haqida oʻylashga undaydi. Shuningdek, geografiya fani til va adabiyotning integratsiyasi oʻquvchilarda ijtimoiy masʼuliyat va ekologik oʻzgarishlarga nisbatan pozitiv

qarashlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu integratsiya orqali o'quvchilar ekologik muammolarni faqat ilmiy va texnik jihatdan emas, balki badiiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham tahlil qilishadi, bu esa ularda ekologik masalalar bo'yicha chuqur va keng qarashlarni rivojlantiradi.

Shunday qilib, ekologik kompetentlikni rivojlantirishda geografiya o'qituvchilari ona tili adabiyot o'qituvchilarining birgalikdagi mehnati alohida ahamiyatga ega. Ularning integratsiyasi o'quvchilarda ekologik masalalar bo'yicha keng qamrovli bilimlarni shakllantirish, amaliy yondashuvlarni qo'llash va jamoaviy ishlarni rivojlantirish imkonini beradi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar va integratsiyalashgan ta'lim metodlari orqali ekologik kompetentlikni shakllantirish nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki o'quvchilarning kelajakda ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomov Q. Ekologik muammolar va ularning yechimlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 224 b.
2. Karimov S. Ekologik ta'lim va tarbiya. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2018. – 198 b.
3. Nazarov U., Abduqayumov I. Geografiya va ekologiya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. – 312 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2022.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 84 b.
7. Xolmirzayev B. Til va adabiyot ta'limi: innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2021. – 176 b.
8. Hasanboyeva D. Ekologiya va barqaror rivojlanish. – Toshkent: Universitet, 2016. – 245 b.
9. Ergashev R. Tabiat va inson: ekologik madaniyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 188 b.
10. Abdukarimov B. Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 230 b.
11. Xudoyberganov N. Geografiya o'qitish metodikasi va ekologik ta'lim. – Toshkent: Istiqlol, 2021. – 194 b.
12. Bronfenbrenner U. Ekologik tizimlar nazariyasi. – Nyu-York: Harvard University Press, 2005. – 276 b.